

**Adabiyotshunoslikda Xusrav va Farhod munozarisinng
qiyosiy-tipologik tahlili.**

Sam DU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi

II bosqich magistranti Bo`ronov Ikrom

Ilmiy rahbar f.f.n. Sobirjon Tohirov

Adabiyotshunoslik tarixida Xusrav va Farhod munozarasi juda ko'p asarlardan o'rin olgan. Shulardan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", Nizomiy Ganjaviyning "Xurav va Shirin", Amir Xusrav Dehlaviyning "Shirin va Xusrav", Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" va boshqa dostonlarni keltirihimiz mumkin. Nizomiyda bu munozara Farhodning ichki olamini tasvirlash bilan boshlanadi. Kiyingi baytlarda Farhodning Shiringa bo'lgan munosabati tasvirlanadi. Bu munozara hukmdor va oddiy hunarmand orasidagi ziddiyat emas, ikki turdagi ishqning ziddiyati hamdir. Bu dostonida ham ilohiy ishq kuylanadi. Taniqli sharqshunos va tasavvufshunos A.E. Krimskiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonini "Allohga intilayotgan inson ko'nglining majoziy tasviri"¹, - deb bejizga aytmagan. Xusrav Dehlaviy munozarasida oshiq uchun yorning zohiriy xislatlari ahamiyatsiz, uning uchun qalbdagi ishq muhim. Nizomiy Ganjaviy munozarasida Farhod ishqini jon bilan bog'langan, u bilan birgalikda mavjud. Dehlaviyda ishq jondan ham ustun, u ruh bilan tenglashadi. Bu esa uning abadiyligini ta'kidlaydi. Navoiyda Farhodning ishqini jon va ruh qovushmagan mahalda paydo bo'lgandi. Shuning uchun ham N.Komilov bu dostonning maqadi "Ilohiy ishq" dardini kuylash "Farhod esa ana shu ilohiy ishqqa muhtalo solikdir", - deb yozadi. Shirin esa "Farhodning ma'juziy ishqini uchun mazhar"dir.²

Alisher Navoiy yaratgan munozaraga xos bo'lgan yana bir xususiyat, Xusrav sosoniylarning buyuk hukmdori sifatida oldida zanjirband holda yotgan Farhodni mensimaydi. Farhod esa ham jismonan (Xusrav butun kuchini bilan uni yenga olmagan, faqat hiyla bilan qo'lga tushirgan) ham ma'naviy jihatdan ustun. Shu bilan birga oldingi asarlardan farqli o'laroq, Shirin Xusravga emas Farhodga oshiq. Shu tufayli bu munozarada ishqiy mulohazalar zohiran so'z vositasida bir-birini

¹ Кримский А.Е. "История перси её литературы и дервещической теософии". – М., 1906. Стр.-185.

² Komilov N. Tasavvuf yoki komil inon axloqi. – Toshkent, 1996.

yengishga intilish tarzida ifodalangan. Xusravning mensimay bergan savollariga Farhod ham kuchli kesatiq va kinoya bilan javob qaytaradi;

Dedi: Qaydin sen, ey majnuni gumrah?

Dedi: Majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: Nedur sanga olamda pesha?

Dedi: Ishq ichra majnunlik hamesha.

«Ko'rinadiki, Xusrav ham, Farhod ham «majnun» degan so'zni tildan qo'ymaydi, lekin Xusrav buni kesatish ma'nosida ishlatsa, Farhod iftixor bilan bu sifatni o'ziga munosib biladi.³ Munozaraning ilk baytlaridan boshlab kuchli ziddiyat seziladi.

Dedi: Bu ishdin kasbi ro'zi,

Dedi: Kasb o'lsa basdur ishq so'zi.

Dedikim: Ishq o'tidin de fasona,

Dedi: Kuymay kishi topmast nishona.

Dedikim: Kuymagingni ayla ma'lum,

Dedi: Andin erur joh ahli mahrum.

Mazkur bayt Navoiyning munozaraga kiritgan yangi, muhim g'oyalaridan biri bo'lib, unga ko'ra «joh» ahli «kuymak» saodatidan mahrum. Ammo bu baytda Navoiy «joh»ni faqat suratda emas, siyratda ham kasb qilgan kishilarni nazarda tutmoqda. Chunki zohiran katta mansabdagi kishilar ham ba'zan ishq martabasiga erishishi mumkin. Buning uchun «shohlar darveshi-yu, darveshlar shohi» bo'lmoq lozim. Oshiq bo'lmish bu dunyo zanjirlarini uzib tashlashi kerak bo'ladi. Mansab egasi esa bu ishni (o'zi hohlagan taqdirda ham) qilishi mushkul. Keyingi baytlardan munozaraning ikkinchi qismi boshlanadi. Unda an'anaga ko'ra Farhodning Shiringa bo'lgan ishq tavsiflanadi:

Dedi: Qay chog'din o'lding ishq aro mast?

Dedi: Ruh ermas erdi tanga payvast.

Ushbu baytda Navoiy dostonning ikkinchi bobida aytgan g'oyasini Farhod

³ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inon axloqi. – Toshkent, 1996.

tilidan yana bir bor tasdiqlaydi. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Nizomiy Ganjaviyning Farhodi so'nggi nafasiga qadar, ya'ni to tirik ekan Shiringa oshiq edi. Xusrav Dehlaviy Farhodning ishq i esa o'lgandan keyin ham davom etadi:

Biguft: Az ishki u to kay huri g'am?

Biguftao: To ziyam, dar murdagi ham.

Alisher Navoiy mazkur g'oyaning yangicha talqinini yaratdi. Uning Farhodi moddiylik kasb etmasidan oldin, ruh bilan tana birlashmasidan oldin oshiq edi. Bunda shoir «alast» voqeasiga ishora qilganligi seziladi. Chindan ham Farhod tug'ilgandanoq, ishq dardiga chalinganligi ayon edi:

Yuzinda ishq asrori yozilg'on,

Ichinda dard ta'vizi qozilg'on.

Jaloliddin Rumi: «Boshi va oxiri bulgan hamma narsa sur'at va qolipdir»⁴, deb yozadi. Farhodning ishq i ibtidoga ham intixoga ham ega emas, u ilohiyot kabi azaliy va abadiydir.

Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidagi munozaraning boshlang'ich qismi nihoyatda kuchli ishlangan bo'lib, bir necha baytda buyuk mutafakkir «yuz risola bo'lgusi» katta falsafiy g'oyalarni berah olgan.

Keyingi baytlarda shoir salaflarning munozaralarida keltirilgan asosiy fikrlarni yanada kuchliroq va jozibaliroq tarzda ifodalaydi. Shu bilan birga ularda bo'lmagan arginal fikrlar ham mavjud. Jumladan, bunda Xusrav Farhodga boylik, mulk berib Shirin ishqidan voz kechishga undamoqchi bo'ladi:

Dedi: Ol ganju kuy mehrin nihoniy,

Dedi; tufroqqa bermon kimyoni.

Dedi: Kishvar beray kech bu havasdin,

Dedi: Bechora kech bu multamasdin.

Munozarada Navoiy yuksak ruhiyatshunos sifatida ham namoyon bo'ladi. Farhodning har bir javobidan keyin Xusravda o'zga bir tabiiy holat, o'zgarish kuzatiladi:

⁴ Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадир

Dedikim: Shahga bo'lma shirkat andesh,

Dedi: Ishq ichra tengdur shohu darvesh.

Dedikim: Dilbaringning de sifotin,

Dedi: Til g'ayratidin tutmon otin.

Salaflarning asarlaridagi Farhoddan farqli ularoq, Navoiyning Farhodi nutqida tushkunlik, maxzunlik o'rnini ishqning fazilatlarini kuylovchi jo'shqin va ko'tarinki sartlar egallaydi.

Dedi: Ishqu ahlining nedur murodi?

Dedi: Vasl ichra jonon iltifoti,

Dedi: Vasliga borsen orzumand?

Dedi: Bormen hayoli birla xursand.

Dedikim: Ishqiga ko'nglung o'rundur?

Dedi: Ko'nglumda jondek yoshurundur.

Dedi: Nushi labidin topkay el baxr?

Dedi: Ul nushdin el kismidur zaxr.

Navoiy dostonidagi Farhod ham o'z maqsadi yo'lida barcha sinovlarga tayyor. Yorning har bir ishi, hatto jabru-jafosi ham oshiqqa rohat bag'ishlaydi. Oldingi munozaralarda asosiy qismni tashkil etgan bu fikrlar Navoiy dostonida nisbatan qisqaroq, biroq yanada kuchliroq tarzda aks etgan.

Quyida ayrim baytlarni solishtirib ko'ramiz:

Dedi: Joningni olsa la'li yodi?

Dedikim: Ushbudur jonim murodi.

Biguft: Arz-u ba jon boshad ziyone?

Biguft: Arzon buvad javrash ba jone.

[Amir Xusrav.]

Dedi: Bu ishq tarki yaxshiroqdur.

Dedi: Bu sheva oshiqdin yiroqdur.

Bigufto: Dustish az tab' bugzor.

Biguft: Az duston n-oyad chunin kor.

[Nizomiy Ganjaviy.]

Biguftash: Dur kun z-on do'st yori,

Biguft: In nest sharti do'stdori.

[Amir Xusrav.]

Dedi: Oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r?

Dedi: Furqat kuni ishq balosho'r.

Bigufto: Dar gamash metarsi az kass?

Biguft: Az mehnati hijroni u bas.

[Nizomiy Ganjaviy.]

Munozaraning so'nggi baytlari Xusrav va Farhod ziddiyatining mantiqiy xulosasidir. Xusravning savollari «nechog'kim mushkul» bo'lsa-da, Farhod ularga «base oson» javob beradi. Tabiiy ravishda oxirgi chora -Farhodni o'lim jazosi bilan qo'rqitish qoladi:

Dedi: Ishk ichra qatling hukm etgum.

Dedi: Ishqida maqsudimga etgum.

Dedi: Bu ishda yo'q sendin yiroq qatl.

Dedi: Bu so'zlaringdin yaxshiroq qatl.

Dostonlar tarkibidagi munozaralarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, an'ana asosida yozilgan asarlar davr o'tishi bilan, jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan rivoji, falsafiy dunyoqarashning o'sib borishi bilan bog'lik holda takomillashadi, Yangi-yangi xususiyatlar kasb etadi. Xusrav va Farhod munozarasi XII asrda yaratilgan bo'lsa, keyingi 7 asr davomida o'zining asosiy maqsadi va asar kompozitsiyasidagi vazifasini saqlab qolgan holda, har bir ijodkor asarida yangi-yangi mazmun boyliklarini, goyaviy xususiyatlarni kasb etib bordi. Har bir ijodkor bu munozarada o'z falsafiy fikrlarini, o'y-hayollarini qahramonlar vositasida ro'yobga chiqardi. Shuning uchun ham bu munozaralarda ishq tushunchasi turlicha talqin qilingan.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Кримский А.Е. “История перси её литературы и дервещиской теософии”. – М., 1906. Стр.-185.
2. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inon axloqi. – Toshkent, 1996.
3. Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадир